

**QURILISH XARAJATLARINI HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH
CHORA TADBIRLARI**

Samadov Dilshod O'rroqboy o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish xarajatlarini hisobi va uni takomillashtirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha o'zbek va xorij olimlarining nazariy tahllillari olib borilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, iqtisodiyot, globallashuvi, innovatsiya, fan va texnika-texnologiya, innovatsion faoliyat, innovatsion xavf va xatarlar, innovatsion salohiyat, innovatsion tavakkalchilik, innovatsion g'oyalar.

Аннотация. В данной статье приведены расчеты затрат на строительство в условиях модернизации экономики и теоретические анализы узбекских и зарубежных ученых по ее совершенствованию и модернизации экономики.

Ключевые слова: модернизация, экономика, глобализация, инновации, Наука и техника-технология, инновационная деятельность, инновационные риски и риски, инновационный потенциал, инновационный риск, инновационные идеи.

Annotation. In this article, the theoretical analysis of Uzbek and foreign scientists on the accounting of construction costs and its improvement and modernization of the economy was carried out in the conditions of modernization of the economy.

Key words: modernization, economy, globalization, innovation, science and technology-technology, innovative activities, innovative risks and risks, innovative potential, innovative risk, innovative ideas.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Kirish. Iqtisodiyot globallashuvining yangicha sharoitida iqtisodiy rivojlanishning asosiy belgisi ishlab chiqarishning texnologik usuli va ularning butun jamiyat iqtisodiy salohiyati ta'siridagi o'zgarishlar hisoblanadi. Ko'pchilik zamonaviy tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar nafaqat jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidagi markaziy bo'g'inini ham ifodalaydi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Kontseptsiyasi"da mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, tarmoqda davlat boshqaruving zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, agrar sektorni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda zamonaviy ilg'or texnika va texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish talab qilinadi.

Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rmini topishida, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida hamda tashqi savdo aylanmasining yuksalishida va eksport salohiyati yanada rivojlanishida ijobjiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va ular ishtirokidag'i korxonalarining faol ish olib borishi —nou-xau[], yangi texnologiyalar, yangi ish o'rinalining yaratilishi, mahalliy sanoat va xom ashyo mahsulotlariga bo'lган talabning ortishi, shuningdek, mazkur korxonalarda mehnat qilayotgan ishchilar turmush darajasining yaxshilanishi bilan bog'liq qator ijobjiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar ro'yxati. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilinishi va ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli jihatlari qator chet ellik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari shakllantirilishida R.Vernon, S.X.Xaymer, Ch.P.Kindlberger, F.T.Knikkerboker, E.M.Grem, P.Bakkli, M.Kasson, M.E.Porter, K.Kojima, J.X.Danning⁴ kabi yetakchi xorijiy olimlar hissasi katta. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlardan X.P.Lankes, K.Meyer, D.Xolland, R.Barrel, L.Krkoska, X.Tomann, M.Vernikovlarning ilmiy ishlarini keltirish lozim.

Shunindek xorijiy iqtisodchilaridan o'z ilmiy izlanishlarini asosiy vositalar hisobi va ulardan foydalanishni tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlariga bag'ishladilar, ulardan: Alisenov A. S., Babayev Yu. A. Zaxarov I. V., Kondakov N. P., Melnik M. V., Pisengols M. Z., Saviskaya G. V., Sergeev S. S., Tolpegin O. A, Astaxov V. P., Govdya V. V., Kolesov N. D., Kondrakov N. P., Kuter M. I., Labinsev N. T., Melnik M. V., Novodvorskiy V. D., Pisengols M. Z., Polyak G. B., Popova L. V., Rudanovskiy A. P., Saviskaya G. V., Sergeev S. S., Chursin A. M. larning ishlari alohida etirof etish mumkun.

Shunga qaramay, asosiy vositalarni hisobga olish va ulardan foydalanish tahlili bo'yicha munozaralar hali ham davom etmoqda. Bu o'rganilayotgan muammoga iqtisodchilarining turli xil yondashuvlarini, masalan, asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuniga (xususan, "asosiy vositalar", "asosiy fondlar" va "asosiy kapital" atamalarini aniqlashga) ko'rsatadi; [8] boshlang'ich narxni shakllantirish; qayta baholashning maqsadga muvofiqligi; asosiy vositalar hisobini hujjatlashtirish; hisobga olinishi, ishlatilishi, mavjudligi hamda ular haqidagi ma'lumotlarni buxgalteriya (moliyaviy)hisobotida aks ettirish masalalaridir.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatning maqsadi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil qilish asosida mamlakatni taraqqiy ettirishdan iborat. Samarali investitsion siyosat, avvalo, investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Investitsion siyosat milliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kerak. Bunda korxonalar va aholining investitsiya faolligini rag'batlantirish hamda respublika iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar etakchi rol o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarning kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ayniqsa xorijiy investitsiyalar respublika mintaqalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, ularning iqtisodiy o'sishida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda, bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o'rinn tutadi. Iqtisodiy o'sish to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamg‘armalar hamda ularni investitsiyalarga yo‘naltirilishiga, ishlab chiqarishni tashkil etish va xizmat ko‘rsatishni rivojlanishiga ma‘lum ma‘noda bog‘liqdir.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir hil sur‘atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish suratlarining jadallahish, jiddiy pasayish va hatto chekshanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan 38 bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan iqtisodiy o'sish bevosa taraqqiyotning mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining takomillashuviga ifodalanadi.

Mamlakatimizda investitsion siyosat islohotlarning dastlabki bosqichida iqtisodiyotda chuqr tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan edi. Shu maqsadda har yili Davlat investitsiya dasturlari ishlab chiqilib, ular amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturlarga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotning o'sish sur‘atlarini barqarorlashtirish imkonini berdi. 2008-yilda boshlanib, hozirgacha davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham O'zbekistonda YaIMning o'sish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sur'atlari 2015-yilgacha 7-8%dan pastga tushmadi. 2016-yilda O'zbekistonda YaIM 2015-yilga nisbatan 7,8 foizga o'sdi va 2017 yilga YaIMning o'sishi 2016 yilga nisbatan 7,8 foizga o'sishi prognozlashtirildi. Sanoat mahsuloti hajmlari - 6,6 foizga, qurilish-pudrat ishlari - 12,5 foizga, chakana savdo aylanmasi - 14,4 foizga, xizmatlar - 12,5 foizga o'sdi. Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijobiy etildi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi ta'minlandi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 5,7 foizni tashkil etdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va strategik maqsadlarini belgilash, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatdagi roli va o'rnini aniqlash imkonini berdi. Respublikamiz iqtisodiyotida investitsiyalarining so'nggi olti yildagi o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o'sish va pasayish tendentsiyalari kuzatilmoqda

Xulosa. Mamlakatda iqtisodiyot rivojlangani sari investitsiya faoliyati ham bunga to'g'ri proporsional ravishda rivojlanadi. Aholi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zida jamg'arilgan daromadlarini foyda olish maqsadida investitsiyaga yo'naltirishadi. Buning natijasida iqtisodiy o'sish jadallahadi hamda o'sha hududda yaratilgan mahsulot hajmi ortib boradi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019 y.
2. Ortiqov I. Agrar sohada innovatsiyaning ahamiyati. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. - Toshkent, 2009. - №2. - B.29.
3. Safoevna, S. Z., & Juraevna, M. N. (2021). Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2), 4056.
1. Karpova T.P. Napravleniya razvitiya buxgalterskogo ucheta v tsifrovoy ekonomike // Izvestiya Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo ekonomiceskogo universiteta. - 2018. - №3 (111). - S. 52-57.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.
3. Кудбиев, Д. (2022). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АРЕНДЫ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ИХ УЧЕТ. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(1), 57-62.
4. Кудбиев, Д. (2021). ВОПРОСЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In ^Временнаа HayKa. XXI век: таучный, культурный, ИТ контекст (pp. 109-119).
5. Кудбиев, Д. (2021). МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА АРЕНДОВАННЫХ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ. In Современная тута XXI век: тучный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).
6. Jumakulov, Z., & Kunduzova, Q. I. (2021). Financial Independence in the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan: Results and Conclusions. Middle European Scientific Bulletin, 19, 236-241.
7. Кундузова, К. И., & Темиркулов, А. (2019). ОРГАНИЗАЦИЯ КОНТРОЛЯ МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХИМИЧЕСКОЙ ЧИСТКИ. In БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА (pp. 150-153).